

MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Toshov G'ulomjon

O'zbekiston Respublikasi

Bank-Moliya akademiyasi magistranti

[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.7824855](https://doi.org/10.5281/zenodo.7824855)


Mamlakatimizda har bir mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish manbalari ma'lum qonunlar asosida belgilab qo'yilgan va ushbu manbalardan tegishli byudjetlarga mablag'lar to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi qonuniy jihatdan himoyalangan.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan moliya tizimiga tegishli har bir qonun va qarorlar ushbu timizning barqarorligi, mustahkamligi va mustaqilligiga xizmat qilishi darkor. Ma'lumki, mahalliy byudjetlar davlat moliya timizimining muhim bir bo'g'ini sifatida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish joizki, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni hududiy byudjetlarning har bir daromad moddasini qonuniy asosini mustahkamlash, ularni tegishli byudjetga so'zsiz kelib tushishini ta'minlash hamda yangi daromad manbalarini o'zlashtirish ushbu byudjetning moliyaviy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning huquqiy asoslaridan biri sifatida, albatta, Byudjet Kodeksini keltirishimiz zarur. Barchamizga ayonki, byudjet Kodeksi mamlakatimiz moliya tizimining bosh qomusi hisoblanib, u byudjet tizimiga tegishli barcha qonun-qoidalarini o'zida jamlagan.

Byudjet Kodeksida mahalliy byudjetlarning daromad shakllantirish manbalari va ularning sarflanish yo'nalishlari keltirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari bir necha daromad manbalari hisobidan shakllantiriladi. Quyida keltirilayotgan 1-rasmda mahalliy byudjetlarning daromad manbalari tasniflab ko'rsatilgan.



1-rasm. Mahalliy byudjetlarning daromad manbalari¹

¹ G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni (Toshkent-2016, Baktria press) o'quv qo'llanmasi asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari - bunday daromadlar huquqiy jihatdan to'liq mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromadlari bo'lib, ya'ni ushbu viloyat yoki tumanlarda shakllanadigan daromadlardir. Hozirgi vaqtda mahalliy moliya organlari oldida turgan eng katta vazifalardan biri ham mahalliy byudjetlarning jami daromadlarida o'z daromadlari ulushini oshirish hisoblanadi. Chunki hududiy byudjetlar qanchalik o'z daromadlari hajmini ko'paytirib borsa, ular shunchalik moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lib boraveradi, ya'ni ularning yuqori byudjetlarga, masalan, viloyat yoki respublika byudjetlariga qaramligi pasayib boradi va buning natijasida respublika byudjeti mablag'lari yangi sohalarni rivojlantirishga, mamlakatni yanada rivojlantirishga hamda aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari. Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari. Mamlakatimizda mahalliy moliya amaliyotida sir emaski, mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig'imlar) hudud byudjetidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni to'liq qoplash uchun yetarli emas. Shu nuqtai nazardan, mazkur xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida qoplash uchun hamda mahalliy byudjetlarning balansligi tamoyilidan kelib chiqib, mahalliy byudjetlarning daromadlarini to'ldirish uchun qo'shimcha ravishda tartibga soluvchi (balanslovchi) daromadlar yuqori byudjetlar tomonidan beriladi. Demak, mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismi byudjetlararo boshqaruv yo'li orqali tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari va byudjetlararo transfertlar orqali shakllantirilib, mahalliy byudjetlar balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi ta'minlanmoqda.

Belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari. To'liq respublika byudjetiga tushishi lozim bo'lgan ba'zi umumdavlat soliqlaridan tegishli hudud (viloyat, tuman, shahar)ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mazkur mahalliy byudjetdan amalga oshirilishi rejalashtirilgan xarajatlar miqdori hamda mahalliy byudjetning o'z daromadlari hajmidan kelib chiqqan holda ma'lum bir miqdori mahalliy byudjetlarga qoldiriladi. Me'yorlarni belgilashda mahalliy va umumdavlat soliqlari bo'yicha tushumlarning bashorati, mahalliy byudjetlarning minimal xarajatlari prognozlar alohida hisobga olinadi. Bu normativlarning o'zgarishini mahalliy byudjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish manbasi Byudjet Kodeksi moddalarida belgilab qo'yilgan. Umumdavlat soliqlarining deyarli barchasi tartibga soluvchi hisoblanadi va ajratmalarining normativlariga muvofiq, respublika byudjeti hamda byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Ajratmalarining normativlari hududlar bo'yicha turlicha bo'lib, 100 foizdan 5 foizgacha qilib belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni (Toshkent-2016, Baktria press) o'quv qo'llanmasi asosida talaba tomonidan tayyorlandi
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi